

**Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



"TASDIQLAYMAN"
Q'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

«15» 02 2022 y.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (paxta, to'qimachilik va yengil sanoat)" yo'nalishi bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o'quv dasturi
(oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan nomutaxassis kadrlar uchun)

Toshkent – 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

Tuzuvchilar:

“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” moduli:
TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi direktori, p.f.d., prof.
F.M. Zakirova, TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi
dotsenti, t.f.n. V.A. Karimova.

“Umumkasbiy tayyorgarlik” bloki modullari: TTYeSI,
“To’qimachilik materialshunosligi” kafedra dotsenti, t.f.n.
Sh.A. Usmanova, TTYeSI, “To’qimachilik materialshunosligi”
kafedra professori, t.f.n. M. Qulmetov.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha: “O'zbekiston milliy metrologiya
instituti” davlat muassasasi O'lchash va sinash vositalarini
sertifikatlashtirish organi rahbari, t.f.f.d (PhD) SH.Q.Usmonqulov,
“Standartlashtirish va sifatni boshqarish ilmiy-maslahat markazi”
MCHJ direktori M.T. Ergashev, TTYeSI, “To’qimachilik
materialshunosligi” kafedra professori, t.f.n. T.A.Ochilov.

Taqrizchilar:

t.f.n., A.A. Axmedov - “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ
standartlashtirish va metrologiya bo'yicha ilmiy maslahatchi.
t.f.f.d (PhD) O.O. Rajapov - TTYeSI, «Yigirish texnologiyasi»
kafedra mudiri.

*O'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining
ilmiy kengashida tasdiqqa tavsiya qilingan. (2021 yil ____ -
______ dagi ____ - sonli bayonnoma)*

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 14-sentabrdagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida kasbiy (pedagogik) qayta tayyorlash kurslari faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"gi 479-sonli buyrug'ida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan nomutaxassis pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlash kursi uchun mo'ljallangan o'quv reja asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'lchash birligini ta'minlash asoslari, Xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish, to'qimachilik materialshunosligi, muvofiqlikni baholash, mahsulot ishlab chiqarishda sifat menejmenti, texnik nazorat va sifat menejmenti, mahsulot sifatini statistik nazorat qilish uslublari, sinov laboratoriyasini loyihalashni o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (paxta, to'qimachilik va engil sanoat)" yo'nalishida pedagog kadrlarning o'lchov birliklari bilan tanishish, SI Xalqaro birliklar tizimida ishlatilayotgan birliklar, ularning kelib chiqishi, fizik o'lchov birliklari va ularning yuzaga kelishi, o'lchash asboblarning metrologik xususiyatini o'rganish, muvofiqlikni baholash fanining ahamiyati, sertifikatlashtirishga oid atama va ta'riflar, mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish Xalqaro va davlatlararo standartlashtirish, sertifikatlashtirish, sifat tizimini rivojlantirish, zamonaviy sifat menejmenti tizimlari, sertifikatlashtirishga oid atama va ta'riflar, mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish, mahsulot tuzilishi va xossalarining tahlili asosida sifatni baholashdagi miqdoriy uslublarni o'zida mujassam etgan va barcha yechimlarni tahlil etish, mahsulot sifatini baholash,

to'qimachilik materiallarining sifatini aniqlashda muqobil usullarni tanlash va ishlab chiqarishda sifat menejmenti tadbirlarini amalga oshirishi, mahsulot tuzilishi va xossalari tahlili asosida sifatni baholashdagi miqdoriy uslublarini o'zida mujassam etgan va barcha yechimlarni tahlil etish, sifatni aniqlashda muqobil usullarni tanlash va ishlab chiqarishda texnik nazoratni, sifat menejmenti tadbirlarini amalga oshirish va sifatni boshqarish, meyoriy-texnik hujjatlarning sifati, xom ashyo va yordamchi materiallar, texnologiya, o'lchov asboblari sifati, mahsulot sifatini shakllantirish asoslari, mahsulot sifatini belgilovchi omillar, to'qimachilik materiallarining sifat ko'rsatkichlari va sifatni baholashda qo'llanilishi, namuna tanlash usullari va ulardan foydalanish, respublikamizda zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu korxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida paxtachilik, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari sinov laboratoriyalarini loyihalash va ularni tatbiq etishni o'rganadi.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari, iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonun, sertifikatlashtirish tizimining asosiy ko'rinishi, majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat, mahsulot sifatini boshqarish usullari;

- metrologiya sohasida birliklarning kelib chiqishi, ularning ishlatilishi, vazifalari, fizik o'lchov birliklari va ularning yuzaga kelishi, to'qimachilik sanoat korxonalarida o'lchash asboblari metrologik xususiyati, metrologiya fanining rivojlanishi va ahamiyati, metrologik sohasida ishlatiladigan ta'riflar;

- sifat tushunchasi, sifatni umumiy nazorat qilish, standartlarni vujudga kelishi, Xalqaro va davlatlararo standartlashtirish, Xalqaro standart tizimida sifatni boshqarish prinsiplari, sifatni boshqarish tizimi va xalqaro standartning mohiyati, ISO tizimi bo'yicha sertifikatlashtirish, ketadigan harajatlar, sifat menejmenti tizimini tahlil etish, Xalqaro sifat menejment tizimi, sifat menejmenti modellari, mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha zamonaviy boshqarish tizimi bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs loyihasi va magistrlik dissertatsiya ishlarini bajarish bilan real sharoitga qo'llash;

- sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari, iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonun, sertifikatlashtirish tizimining asosiy ko'rinishi, majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish, sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat, mahsulot sifatini boshqarish;

- mahsulotni maqsadga muvofiq ravishda ishlov berilishini va uning samarali ravishda qo'llanilishini ta'minlaydigan sifat ko'rsatkichini asoslash, bir qancha tanlangan sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslublarini ishlab chiqish, sifat ko'rsatkichlarining belgilangan meyorini aniqlash, mahsulot sifatini baholash va

nazorat qilish usullarini tuzish, hamda ushbu usullarni mahsulot sifatini boshqarishda qo'llash, turli sanoat korxonalarida olib borilayotgan sifat menejmenti tizimining asosiy vazifalari va maqsadlari, mahsulot sifat menejmentining umumiy shakli, statistik uslublari, mahsulot sifatini boshqarish, texnologik jarayonni va mahsulot sifatini sistematik tahlil etish, mahsulot sifatini boshqarishda ishonchlilik nazariyasi, ishonchlilik nazariyasining asosiy tushunchalari;

-mahsulotni maqsadga muvofiq ravishda ishlov berilishini va uning samarali ravishda qo'llanilishini ta'minlaydigan sifat ko'rsatkichini asoslash, bir qancha tanlangan sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslublarini ishlab chiqish, sifat ko'rsatkichlarining belgilangan meyorini aniqlash, mahsulot sifatini baholash va nazorat qilish usullarini tuzish, hamda ushbu usullarni mahsulot sifatini boshqarishda qo'llash, turli sanoat korxonalarida olib borilayotgan texnik nazorat bo'limining asosiy vazifalari va maqsadlari, mahsulot sifat menejmentining umumiy shakli, statistik uslublari, mahsulot sifatini boshqarish, texnologik jarayonni va mahsulot sifatini sistematik tahlil etish, mahsulot sifatini boshqarishda ishonchlilik nazariyasi, ishonchlilik nazariyasining asosiy tushunchalari;

-matematik statistik va ehtimolar nazariyasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, statistik ko'rsatkichlar majmualarining taqsimlanish qonunlariga mosligini tekshirish, mahsulot sifatini nazorat qilish, namuna tanlash turlari, bosqichlari va tasodifiy qiymatlarning yig'ma xarakteristikalarini aniqlash, belgilash, natijalarni ilmiy asoslashda korrelyativ, dispersiyali va boshqa tahlillarning mezonlarini qo'llash;

-me'yoriy-texnik hujjatlarning sifati, xom ashyo va yordamchi materiallar, texnologiya, o'lchov asboblarning sifati; mahsulot sifatini shakllantirish asoslari; mahsulot sifatini belgilovchi omillar; to'qimachilik materiallarining sifat ko'rsatkichlari va sifatni baholashda qo'llanilishi, to'qimachilik materiallarining sifat ko'rsatkichlari baholash usullari; to'qimachilik materiallarning namunaviy va jami mahsulot yig'ma sonli xarakteristikalarini aniqlash;

-fan buyicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kursni tugatish ishini bajarish bilan real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlarini;
- ta'lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini;
- ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- metrologiya fanining rivojlanishi va ahamiyati, metrologik sohasida ishlatiladigan ta'riflarini;
- o'lchashning turlari va uslublari, fizik o'lchov birliklari va ularning yuzaga kelishini;
- to'qimachilik sanoat korxonalarida o'lchash asboblarning metrologik xususiyatini;
- mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish haqida ma'lumot;
- O'zbekiston respublikasining sertifikatlashtirish idoralarini;
- iplarni qabul qilish va sifatini nazorat qilish, pillarni qabul qilish va chuvish, ipakni yigirish va to'quvchilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini;
- sifat, sifat ko'rsatkich, tola, ip, gazlama, trikotaj va noto'qima matolarining sifatini aniqlash standartlarini;
- sifat menejmenti tizimini yaratish, sifat menejmenti tizimining modellari, sifat menejmenti tizimida qo'llaniladigan meyoriy hujjatlarning turlarini;
- sifat menejmenti tizimi, sifat menejmenti tizimi bo'yicha atama va tushunchalar, sifat menejmenti tizimi va mahsulotga qo'yiladigan talablarni;
- sifat tushunchasi, mahsulot sifatini baholash, mahsulot sifatini boshqarish, mahsulotni badiiy koloristik va iste'mol talablarini;
- laboratoriya shtatini hisoblash, sinov laboratoriyalari binosiga va xonalariga qo'yiladigan talablarni;
- yigirish, to'quvchilik, trikotaj va noto'qima matolar ishlab chiqarish korxonalarida sinov laboratoriyalarining turlari va vazifalarini;
- pillarni qabul qilish va pillarni chuvish korxonalari sinov laboratoriyalarining turlari va vazifalarini;
- sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish laboratoriyalari va ularning vazifalari, ilmiy tekshirish laboratoriyalari va ularning vazifalarini;
- sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari, iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonunni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat qilish;
- mahsulot sifatini boshqarish;
- muvofiqlik sertifikati va belgisi, ishlab chiqarish va sifat tizimlarini sertifikatlashtirish;
- Xalqaro va davlatlararo standartlashtirish, Xalqaro elektrotexnik komissiya va standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi, Yevropa ittifoqi doiralarida standartlashtirish;
- Xalqaro va sifat tizimi standartlarining bog'liqligi, Xalqaro standart tizimida sifatni boshqarish;

- sifat, sifat ko'rsatkich, tola, ip, gazlama, trikotaj va noto'qima matolarining sifatini aniqlash;
- bir bosqichli, ikki va ko'p bosqichli namunalar tanlash va xatoliklarini hisoblash, baholash usullarini bilish va qo'llay olish;
- sertifikatlashtirish tashkilotlari, sertifikatlashtirish tashkilotlarini akkreditlashtirish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- Xalqaro standartlarni joriy etish va sifat menejmenti tizimini yaratishga va tadbiq etishga tayyorlash, Xalqaro sifat menejment tizimi, sifat menejmenti modellari, mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha zamonaviy boshqarish;
- ISO tizimi bo'yicha sertifikatlashtirish, sifat menejmenti tizimini tahlil etish, sifatni umumiy nazorat qilish, Xalqaro va davlatlararo standartlashtirish, Yevropa ittifoqi doiralarida standartlashtirish;
- sifat tizimi bo'yicha meyoriy hujjatlar bilan ishlash va sifat menejmenti tizimini tahlil etish;
- majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish;
- sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat;
- muvofiqlik sertifikat va belgisi, ishlab chiqarish va sifat tizimlarini sertifikatlashtirish;
- tola, ip, mato va tayyor buyumlar tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar tahlili;
- sinov ishlari uchun namuna tanlash prinsiplari va uslublari, namuna tanlash va sinov namunalari va sifat menejmenti tizimi asosida sifatni ta'minlash va boshqarish;
- sifat menejmenti tizimining umumiy masalalari, paxtani qabul qilish va saqlash, paxta tozalash korxonalarida qo'llash;
- junni qayta ishlash korxonalarida texnik nazorat, to'quvchilik korxonasida texnik nazorat, gazlama va donali buyumlarning qabul qilishdagi nazorati, to'quvchilik, pardozlash va tikuvchilik korxonalarida sifat nazorati;
- sertifikatlashtirish tashkilotlari, sertifikatlashtirish tashkilotlarini akkreditlashtirish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- gazlama va donali buyumlarning qabul qilishdagi nazorati;
- trikotaj matolari va buyumlarining sifatini nazorat qilish;
- yigirish korxonasida notekislikni nazorat qilish;
- yigirish korxonasida mahsulotning chiziqliy zichligi bo'yicha notekisligini nazorat qilish;
- yigirish korxonasida xom ashyo va mahsulotning tozaligini nazorat qilish;
- piliklash va yigirish mashinalarida mahsulotning uzilishini nazorat qilish;

- trikotaj korxonasida texnik nazoratni tashkil etish;
- trikotaj matolari va buyumlarining sifatini nazorat qilish;
- paxtani qabul qilish va saqlashda texnik nazorat, paxta tozalash korxonalarida texnik nazorat qilish;
- iplarni qabul qilish va sifatini nazorat qilish;
- ipakni yigirish va to'quvchilik korxonalarida texnik nazorat qilish;
- tola, ip va gazlamalar sinov-tajribalari, statistik ma'lumotlarni matematik usullarini qo'llab nazariy taqsimlanish mezonlari yordamida tahlil qilish va baholash;
- ahamiyatli sifat ko'rsatkichni ekspert usulida baholash;
- sifat ko'rsatkichlarni ranga, ball va indeks bo'yicha kompleks baholash, nazorat diagrammalari asosida mahsulot sifatini uzluksiz statistik nazorati;
- texnologik jarayonlar sxemasini tanlash, standart bo'yicha sinovlar sonini aniqlash, sinovlar hajmi va laboratoriya shtatini aniqlash, laboratoriya binosi va bo'limlar bo'yicha jihozlarni joylashtirish;
- sinov laboratoriyasi loyihalash kabi *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Kasbiy qayta tayyorlash kursi 864 auditoriya soatni tashkil etadi. Qayta tayyorlashning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari to'g'risida" gi 25-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi Diplom beriladi.

"METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI MENEJMENTI (PAXTA, TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOATI)" QAYTA TAYYORLASH KURSI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

I. Umumiy tayyorgarlik

1.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari.

Vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

II. Umumkasbiy tayyorgarlik

2.1. O'lchash birligini ta'minlash asoslari

O'lchash birligini ta'minlash asoslari fanining ahamiyati, metrologiyaning fan sifatida shakllanishi, metrologiya sohasida ishlatiladigan asosiy atamalar va ta'riflar, metrologik ta'minotning asosiy maqsadi, O'zbekiston respublikasi metrologik xizmati, metrologiya sohasida ishlatiladigan birliklar, o'lchash vositalari va standart namunalari ustidan tekshiruv nazoratini olib borish, tekshirish turlari, o'lchash vositalarini metrologik attestatsiyalash, qiyoslash va kalibrlash tizimi, fizikaviy kattaliklarning birliklar tizimi, SI Xalqaro birliklar tizimining rivojlanishi, to'qimachilik materialshunosligida SI tizimi birliklarining qo'llanilishi, o'lchashning turlari va usullari, o'lchash vositalari va ularning metrologik xususiyati, o'lchash texnikasidagi yangi va avtomatlashtirilgan tizimlar, o'lchash texnikasining hozirgi kundagi holati va rivojlanish istiqbollari, o'zbekiston respublikasida metrologik faoliyatning qonuniy asoslari.

Og'irlik kvadratlarining asosiy metrologik xususiyatini aniqlash, elektron tarozilarning asosiy metrologik xususiyatini aniqlash, torsion tarozilarning asosiy metrologik xususiyatini aniqlash, iplarni uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatini aniqlash, gazlamalarni uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatini aniqlash, HVI 1000 SA tizimida paxta tolasining sifat ko'rsatkichini o'rganish natijasida olingan natijalarni baholash usuli, iplarning bikirlik ko'rsatkichini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, iplarning xususiyatini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, iplarning eshilishi va eshilishdagi qisqarishini o'rganish ko'rsatkichini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, iplarning bikirligini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, xom ipakning uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, xom ipakning mayda va yirik nuqsonlar bo'yicha tozaligini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, to'qimachilik gazlamalarining uzilish kuchini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, to'qimachilik gazlamalarining havo o'tkazuvchanligini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash, to'qimachilik

gazlamalarning rangni ishqalanishga chidamligini o'rganish natijasida olingan natijalarning mutloq va nisbiy xatoligini aniqlash.

2.2. Xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish

“Xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish” faniga kirish. Standartlashtirish va sertifikatlashtirishning ahamiyati, sifat tizimini rivojlanish tarixi, Xalqaro ISO 9000 seriyali 3-taxrirlarining joriy qilinishi, standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotlar (XST), standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash, jahon savdo tashkilotlari (JST) doiralarida standartlashtirish, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 28.04.2017 yildagi PQ 2935 sonli sharhi, O'zDSt ISO 9000:2009 (ISO 9000:2005, IDT) Sifat menejmenti tizimlar standartida o'zgarishlarning tahlili.

Akkreditlangan sertifikatlashtirish laboratoriyasi faoliyatini inspeksiya nazoratini o'tkazish, sifat menejmenti tizimi (O'zDSt ISO 9001:2015) bo'yicha audit o'tkazish (Blits-o'yin texnologiyasini qo'llash), O'zDSt ISO/IEJ 17025:2007 standarti talablariga “CentexUz” sertifikatlashtirish markazlari faoliyatini aktualashtirilganligini inspeksiya nazoratidan o'tkazish, O'zDSt 1.6:2008 standarti talablarini (“CentexUz” misolida) standart talablari bilan uyg'unlashtirilganligini tahlil qilish, O'zDSt ISO 16549:2014 bo'yicha Uster tipidagi ip notekislik xarakteristikalarini aniqlash klasterini tuzish, O'zDSt ISO 105-A.02, A.03, V.02 shkalalar bo'yicha to'qimachilik materiallari rang mustahkamligini aniqlash, O'zDSt ISO 12945:2014 bo'yicha gazlama va trikotaj matolarini pillinglashini baholash tartibini tahlil qiling, O'zDSt ISO 16549:2014 bo'yicha Uster tipidagi asbobda ipning notekisligini aniqlash, O'zDSt EN 14278-1:2012 bo'yicha paxta tolasi shiradorligini qo'l detektoridan foydalanib aniqlash, O'zDSt ISO 105-A02:15 bo'yicha to'qimachilik matolari rang mustahkamligini A.02 shkalasi bo'yicha o'zgarishini aniqlash, O'zDSt ISO 105-V02:15 bo'yicha to'qimachilik materiallari (trikotaj, NTM) rang mustahkamligini V.02 sun'iy yorug'lik vositasi ostida aniqlash, TC 263 ISO 5908.020 bo'yicha to'quvchilik iplarining sifatini (uzilish kuchi, uzilishdagi cho'zilishi, notekisligi, eshilishi)ni aniqlash, TC 262 ISO 5908.020 bo'yicha trikotaj iplarining sifatini (uzilish kuchi, uzilishdagi cho'zilishi, notekisligi, eshilishi)ni aniqlash, O'zDSt ISO 12945-2:2014 bo'yicha gazlama va trikotaj matosi yuzalarida pillinglanishini modifikatsiyalashtirilgan usulda mustahkamligini aniqlash, O'zDSt ISO 12947-1:2014 bo'yicha jun matolari yuzalarida pillinglanishini modifikatsiyalashtirilgan usulda mustahkamligini aniqlash, O'zDSt ISO 12947-2:2014 bo'yicha ipak matolari yuzalarida pillinglanishini modifikatsiyalashtirilgan usulda mustahkamligini aniqlash, GOST 29298-2005 standarti bo'yicha Maishiy ip gazlama matolari sifatini aniqlash va baholash, GOST 21790-2005 standarti bo'yicha kiyimlik ip gazlama matolari

sifatini aniqlash va baholash, SITS (HVI) usulida O'zDSt 604:2016 standarti bo'yicha paxta tolasini sertifikatsiya sinovlarini o'tkazib baholash.

2.3. Standartlashtirish asoslari

Standartlashtirish asoslari fanining maqsad va vazifalari, standartlashtirish tizimi, standartlashtirishning asosiy maqsad va vazifalari, standartlashtirishning ahamiyati, standartlashtirish sohasidagi asosiy atama va ta'riflar, standartlashtirish, standartlashtirish ob'ekti. Xalqaro, milliy va mintaqaviy standartlashtirish, moslashuvchanlik va o'zaroalmashinuvchanlik, me'yoriy hujjat. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish Davlat tizimi va uning mohiyati, standartlashtirish davlat tizimi, tarmoqlararo tizim, me'yoriy hujjatlar, ilmiy-texnikaviy daraja, hududiy, davlatlararo, xorijiy standartlar. Xalqaro tashkilot. Xalkaro elektrotexnik komissiya, standartlashtirish ishlarining huquqiy asoslari, standartlashtirishning asosiy maqsadlari. Xalqaro (davlatlararo, hududiy), xorijiy me'yoriy hujjatlar. Standartlar va o'lchashlar birligini ta'minlash ustidan davlat nazorati idoralari, ob'ektlari va sub'ektlari, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, texnik qo'mitalar. Xalqaro elektrotexnik qo'mita. Davlatlararo kengash qatnashchi, mahsulotning asosiy iste'molchilari. O'zDavstandart Agentligi. Davlat arxitektura qurilish, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash vazirligi, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar, rejalashtirish va muvofiqlashtirish, davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari, ilmiy-texnikaviy va tashkiliy-uslubiy rahbarlik, ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik-texnologik bo'limlar, standartlashtirish sho'balari yoki laboratoriyalar, "Pod'yomnik" aksiyadorlik jamiyati, SNTM aloqa va axborot agentligi, "Paxtasanoatilm", "O'zneftgaz-LITI", "KINAP". O'zbekiston respublikasi standartlashtirish Davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalari, standartlarning turlari, standartlashtirishning asosiy maqsad va vazifalari. Halqaro, davlat, tarmoq, millatlararo, respublika va h.k. standartlari, to'qimachilik sanoati korxonalarida standartlashtirishning turlari, texnik shart standarti, tajriba uslubi, o'lchash asboblarning tekshirish uslubi, standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari, standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari, standartlashtirish ishlarini tashkil etish, standartlashtirish sohasida me'yoriy hujjatlarning toifalari, standartlarni ishlab chiqish va uni tasdiqlash, standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati, standartlarni ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish, standartlashtirish loyihasini ishlab chiqish, standartni ishlab chiqish tartibi

2.4. Muvofiqlikni baholash

Muvofiqlikni baholash fanining ahamiyati, sertifikatlashtirishga oid atama va ta'riflar, mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish haqida ma'lumot, O'zbekiston respublikasining sertifikatlashtirish idoralari,

sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari, iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonun, sertifikatlashtirish tizimining asosiy ko'rinishi, majburiy sertifikatlashtirishni joriy etishsertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, sertifikatsiyalashtirishni o'tkazish tartibi va qoidalari, sertifikatsiyalashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati, sertifikatsiyalashtirish natijalari haqida ma'lumot, sinov laboratoriyalarini akkreditlashtirish, xorijiy davlatlarda sertifikatlashtirish amaliyoti.

Sertifikatlashtirishda asosiy atamalar va ta'riflar, O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Mahsulot va xizmat sertifikatlashtirish to'g'risidagi» qonuni, BMT qoshidagi Evropa iqtisodiy komissiyasi (EEK), O'zDSt ISO/IEC17025:2015 Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar, Sertifikatsiyalashtirish bo'yicha ISO qo'mitasi (ISO/SERTIKO), Muvofiqlikni baholash ISO qo'mitasi (ISO/KASKO), qonuniy metrologiya bo'yicha xalqaro tashkilot (MOZM), sifat bo'yicha Evropa tashkiloti (EOK), sertifikatni berish tartibi, sertifikatlashtirish sxemalari, ekspert-auditorlarning vazifalari, majburiy sertifikatsiyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatsiyalashtirish, majburiy sertifikatlashtirishning moliyaviy ta'minoti, sertifikatsiyalash tashkilotiga quyiladigan talablar, sertifikatsiyalashtirish idorasining tuzilishi va vazifalari, «Iste'molchilar huquqini himoya qilish» to'g'risidagi qonun, sertifikatsiyalashtirish bo'yicha (O'zbekiston standartlashtirish agentligi) Milliy idora, sertifikatsiyalashtirish idoralarining akkreditlashtirish bo'yicha ishlar, sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar.

2.5. Mahsulot ishlab chiqarishda sifat menejmenti

